Aviachiptani onlayn qayta rasmiylashtiring

2022 25 August

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi o‘z yo‘lovchilarini xursand qilish uchun qulay sharoitlar yaratishda davom etmoqda. Endi yo‘lovchilar yangi “Aviachiptani qayta rasmiylashtirish” xizmatidan foydalanishlari mumkin. Aviachiptani qayta rasmiylashtirish uchun qo‘shimcha xizmatlar bo‘limida aviachipta raqami va familiyangizni kiritishingiz kerak. Keyinchalik, muvaffaqiyatli avtorizatsiyadan so‘ng, “Aviachiptani qayta rasmiylashtirish” tugmasini bosishingiz kerak va ochilgan oynada yo‘lovchini qiziqtirgan yangi jo‘nash sanasini tanlang, agar bir nechta reyslar bo‘lsa, jo‘nash vaqtini tanlang va “Qiymatni hisoblash” tugmasini bosing.

Tegishli jarimalar hisoblanib, yangi tarifga qo‘shimcha to‘lov rasmiylashtirilib (agar aviachiptada ko‘rsatilgan tarif bo‘yicha joylar bo‘lmasa), aviachiptani qayta bronlash uchun to‘lov amalga oshirilganidan so`ng, yangi aviachipta yo‘lovchiga u ko‘rsatgan elektron manziliga yuboriladi.

Eslatib o‘tamiz, www.uzairways.com saytida sotib olingan aviachiptalar faqat aviakompaniyaning saytida yoki Uzbekistan Airways Sales filialida yoki uning agentlari orqali qayta rasmiylashtirish imkoni mavjud.